

XITOY TILINI O'QITISHDA INNOVATSION METDOLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13830215>

Ismatullayeva Madinabonu Davronbek qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya

Rivojlanib borayotgan XXI asrda axborot texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalarining ajralmas qismiga aylandi. Ushbu tendentsiya ta'lif tizimiga ijobjiy hamda salbiy ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Jumladan, O'qituvchilar, xitoy tilini o'rgatuvchilar ham xitoy tilini o'qitish borasida ta'lif jarayoniga turli zamonaviy vositalarni joriy qilmoqdalar, bu esa tilni o'rganishning yanada samarali tomonlarini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Tayanch so'zlar

Xitoy tili, o'yin strategiyasi, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar texnikasi.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, xitoy tilini o'qitishga qiziqish ortib, yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratildi. Birinchi Prezident sifatida

Islom Karimov "Hozirgi kunda mamlakatimizda xitoy tillarini o'qitishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu, albatta, bejiz emas. Bugungi kunda boshqa tillar singari xitoy tilini mukammal bilishning mamlakatlarimiz uchun ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirishning hojati yo'q. Jahon hamjamiyatida munosib o'rinn egallashga intilayotgan xalqimiz uchun xorijiy hamkorlarimiz bilan hamkorlikda o'zlarining buyuk kelajagini qurish muhim ahamiat kasb etadi" deb e'tirof etgan.

Tadqiqot usullari va metodikasi. Shuningdek bugungi kunda ham xitoy tilini o'rganishga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Xitoy tili fani to'rt jihatga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'lingan b'lib, ularning har biri o'ziga xos tushuncha va ko ko'nikmalarga ega. Ta'lif texnologiyasi - ta'lif jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish demakdir. Mazkur ta'lif texnologiyasi, ta'lif jarayoniga zamonaviy, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lif sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Xususan, xitoy tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha afzallik jihatlari mavjud. Masalan,

tinglash va tushunish uchun, albatta, bu jarayonni kompyuter, pleer yoki kompakt disklarsiz amalga oshirish mushkul.

Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Ushbu ko'nikma talabidan bir vaqtning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalari, so'z boyligi va ma'nolariga e'tibor berishni talab qiladi. O'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham o'quvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaqindan tanishishi va ulardan foydalanishida muhim omil bo'lmoqda. Eng samarali usullardan biri zamonaviy texnologiyalar yordamida xitoy tilini o'rgatish va o'rganishdir. Shu jumladan: Kompyuterlardan foydalanganda talaba xitoy tilida videolar, namoyishlar, dialoglar, filmlar yoki multfilmlarni tomosha qilishi va tinglashi mumkin; teledasturlarda va radio eshittirishlarni tinglash va tomosha qilish orqli xitoy tilini o'rganish mumkin; ko'proq an'anaviy metodlar sirasiga mansub bo'lgan MP3 va Podkastlradan foydalanish va hokazo.

Tadqiqot muhokmasi va natijasi. Yuqorida keltirilgan vositalardan foydalanish talabalar uchun xitoy tilini o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar o'tkazish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, turli o'yinlar asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon etishi, diqqatini jamlashi, bilim va ko'nikmasini oshirishi va kuchli bo'lishiga yordam beradi. Bundan tashqari, xitoy tili darslarida innovatsion usullardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini, ravonligini va tez va aniq javob berish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday usullar talabaning bilimga intilishini kuchaytiradi. Talaba darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rishga harakat qiladi. Bu talabalarni o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlaydigan, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'ygan ekan, kelajakda bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishini yanada rivojlantirishga yuqorida qayd etilgan metodlar juda zarur hisoblanadi.

Qolaversa, talabaning asosiy bilimlarini to'ldirish uchun xitoy tilining izohli lug'atlari va ma'lumotnomalarga murojaat qilish uchun Internet imkoniyatlaridan foydalanish ham foydali jihatlari mavjud. Xususan, A.F.Kondrashevskiy tahriri ostidagi "Xitoy tilining amaliy kursi" darsligining birinchi darslarida Tang sulolasi shoiri Li Bo (xitoycha: Li Bay, 701-762/763) she'ri keltirilgan. , shuningdek, Xitoy xalq qo'shig'i "Yasmin gullar" deb ataluvchi qo'shiq ham keltirlgan.

Dars davomida saytlardagi tegishli video yoki audioyozuvlardan foydalanish va ushbu qo'shiqni tinglash mutlaqo mumkin, bu esa, shubhasiz, darsni

jondantiradi. rqa fonda qidiruvda talab qilinadigan saytlar, masalan, Google yoki Baidu kabi mashhur qidiruv tizimlari haqida ma'lumotni eslatib o'tish kerak. Mashg'ulotning keyingi bosqichida mualliflar ikkinchisini tavsiya qiladilar. Buning sababi, Google Xitoyda bloklangan va ushbu tizimning Xitoy segmenti ushbu bloklarni chetlab o'tadigan oz sonli xitoyliklardan tashkil topgan. Ko'pincha bu xitoylik muhajirlar yoki XXRdan tashqaridagi xitoylik talabalar, shuningdek, xitoy tilini o'rganayotgan chet elliklarga xos. Xitoy tilini chuqurroq o'rganish maqsadida turli xil dars video va audio yozuvlar uchun YouTube veb-saytiga tashrif buyurish, va u erda xitoy tiliga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni qidirish mumkin. Natijada, xitoy tilini yanada tezroq o'rganish imkoniyati yuzaga keladi.

Ko'rindiki, hozirgi vaqtida xitoy tilini o'rganish va o'rgatish uchun juda ko'p vositalar bilan birga bir qancha imkoniyatlar mavjud. Qolaversa, til o'rganuvchilar qo'shimcha ravishda Skype orqali ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish, gazeta va kitoblarni, shu jumladan Internetda mustaqil o'qish ko'nikmalarni va video tomosha qilishdan foydalanishi ham mumkin.

Til darajasini oshirish, yangi bilim va ma'lumotlarni o'zlashtirish, shuningdek, estetik zavq olish uchun sinfda o'quv va ta'limiy sohaga tegishli bo'lmasligi videolarni ham, tomosha qilish bir jihatda unumli bo'lishi mumkin. Albatta, shuni ham yodda tutish kerakki, talaba uchun notanish so'zlar juda ko'p bo'lmasligi, darsda filmlarni tomosha qilish uslubiy jihatdan yaxshi qurilgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan bir qancha mulohazalrdan shuni xulosa qilish mumkinki, har qanday tilni o'rganishda muhimm vosita sifatida zamonaviy hamda innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyos ekanligini anglash muhim. Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalangan holda xitoy tilini chuqur o'rganish til o'rganuvchilarning oldiga qo'ygan muhim vazifalaridan biri sanalishi darkor. Xitoy tilini o'rganish uchun turli xil Internet dasturlariga to'xtaladigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, ular nafaqat qo'shimcha vositalar sifatida ba lki til o'rganish vat il o'rgatishning asosiy va ilg'or vositalaridan biri sifatida tavsiya etilishi mumkin. Biroq, darslik va o'qituvchi rahbarligidagi an'anaviy ta'lim esa har doim o'qitishning asosiy poydevori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Archchinese / Online Chinese language learning resource [Electronic resource] // Access mode: www.archchinese.com

2. Voitsekhovich I.V., Kondrashevsky A.F. Chinese. Socio-political translation.

Moscow: East - West, 2008.

3. People's Daily Online, messages in two languages [Electronic resource]

//

Access mode: <http://russian.people.com.cn/95460/index.html>

4. Chinese-Russian dictionary. Beijing: Shanu Yingshuguan, 1989.

5. Kondrashevsky A.F. A guide to hieroglyphics. Moscow: East - West, 2008

6. Li Xingjian. Explanatory Dictionary of Modern Normative Chinese (